

ONA TILI DARSALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI MILLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

Dilnura Valijon qizi Olimova

TDPU "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lifi "yo'nalishi talabasi"

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali milliy tarbiyani shakllantirishga doir qarashlar, ona tili dasrlarida innovatsion texnologiyalarning asosiy vazifalari hamda milliy tarbiyani o'quvchilar ongida singdirish usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zları: axborot texnologiyalari, ta'lif texnologiyalari, o'quvchi ma'naviyati, milliy g'urur, maskuraviy immunitet, globalizashuv, dinamik o'zgarish

Annotation: This article presents views on the formation of national education through the use of innovative technologies, the main tasks of innovative technologies in native language dasrs and methods of absorbing National Education in the minds of students.

Key words: Information Technology, Educational Technology, student spirituality , national pride, ideological immunity. globalization, dynamic change

Аннотация: В данной статье представлены взгляды на формирование национального воспитания посредством применения инновационных технологий, основные задачи инновационных технологий в эпоху родного языка, а также сведения о способах внедрения национального воспитания в сознание учащихся.

Ключевые слова: информационные технологии, образовательные технологии, духовность учащихся , национальная гордость, идеологический иммунитет. глобализация, динамические изменения

Axborot – kommunikatsion texnologiyalari barcha sohalar qatori ta'lif tizimiga ham izchillik bilan kirib kelmoqda. Jumladan, axborotlashtirilgan multimediali ta'lif texnologiyalarini boshlang'ich ta'limga joriy etish orqali o'tiladigan fanlar mazmunini o'quvchilar ongiga to'liq va mukammal ravishda singdirish, innovatsion vositalar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra qabul qilish darajasi yuqori samaradorligi axborot kommunikatsion texnologiyalari orqali uzatilgan ma'lumotlarda yuqori bo'lishi aniqlangan. Bundan tashqari boshlang'ich ta'lifda multimedia vositalaridan samarali foydalanishning o'ziga xos afzalliklari ham bor. Ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

- ta'lifda ko'rgazmalilik eng asosiy o'rindan birini egallaydi;
- o'quvchini izlanishga undaydi;
- o'quvchi ta'lif jarayonini bir vaqtning o'zida ko'radi, uni eshitadi, o'quvchilarga kengroq qamrovdag'i va kattaroq hajmdagi materiallarni tezroq yetkazib beriladi;
- o'quvchi tafakkurini faollashtiradi;
- o'quvchi faoliyatining ijobjiy motivini hosil qiladi;
- mashg'ulotlarni jonli va muloqotli tarzda olib borishga imkoniyat tug'iladi;

- ta’lim mazmuniga tegishli materiallarni kompyuter xotirasida saqlab ularni – o‘quvchilarga xohlagan vaqtida yetkazish imkoniyati bo‘ladi;
- o‘z-o‘zini namoyish etish imkoniyatini beradi, ta’lim mazmunini yoritishda animatsiyalardan foydalanishning keng imkoniyatlari yaratiladi.

Shuning bilan birga, maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarining va o‘quvchi-yoshlarning milliy tarbiyasi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib, shu orqali jamiyat ma’naviyatini shakllantirishga erishish mumkin. Shuningdek, boshlang‘ich ta’limda axborot-kommunikatsion vositalaridan foydalanish jarayonida o‘quvchi-yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirib, uni mustahkamlab borish lozim.

Albatta bu ishlarni oiladan boshlash kerak, ya’ni oilada farzandlarimizdagi ma’naviy sifatlarni tarbiyalashdan boshlash zarur, chunki ularga berilgan tarbiya o‘zları bilan o‘sib takomillashib boraveradi. Shuning uchun ham farzandlarimiz ma’naviyatini shakllantirish va uni yuksaltirishni avvalo oiladan, keyin esa bosqichma-bosqich uzlusiz ta’lim tizimida olib boriladi.

Qolaversa, boshlang‘ich ta’limda ona tili fani mazmuniga Vatan tuyg‘usi, milliy g‘urur, an’ana va milliy qadriyatlarimizni o‘quvchilar ongiga singdirish hamda muomala madaniyati, ovqatlanish, kiyinish, saranjom-sarishtalik, odobli, mehnatsevar bo‘lish kabi insoniy sifatlarni shakllantirib borish lozim. O‘quvchilarga milliy tarbiya berishni quyidagi uch yo‘nalishda olib borgan ma’qul: O‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishga ijobiy ta’sirlar.

O‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishga salbiy ta’sirlar va ularni bartaraf etish.

O‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishning multimediali ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va undan amaliyotda keng foydalanishga erishish. Shuningdek, multimedia usuli ta’lim samaradorligini oshirishda quyidagi ta’limiy va tarbiyaviy afzallikkarga ega: axborotning xilmassisligi: matn, lavha, bezak, nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiyalardan foydalanishga erishiladi; “Inson – kompyuter” interaktiv muloqotning yangi darajasi ancha keng bo‘ladi va undan har tomonlama axborotlarni oladi; o‘quvchilarga ta’lim olishda ijodiy munosabatni uyg‘otadi va bu o‘z navbatida ularga ishonchni shakllantiradi; o‘quvchilar tafakkurini faollashtiradi; o‘quv faoliyatining ijobiy motivini hosil qiladi; o‘z-o‘zini namoyish etish imkonini beradi; turli fikr va mulohazalarga diqqatni jalb qilishni o‘rganadi; yangi fikr-mulohazani bildirishga va o‘zlashtirishga ruhan tayyor bo‘ladi.

Bugungi kun o‘quvchisi, ularning orzu-intilishi, qiziqishlari orasida ham katta farq bor. Shundan kelib chiqib bugungi kun o‘qituvchisi nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo miqyosida ro‘y berayotgan yangiliklardan vaqtida xabardor bo‘lishi, o‘z sohasiga doir zarur ilmiy yangiliklarni mehnat faoliyatiga tatbiq etishi, faqat darslikka tayanib qolmasdan, mavzu ko‘lamini o‘quvchilarga anglata bilishi, o‘z ustida tinmay izlanishi, o‘zida bor bilimlarni yanada kengaytira borishi lozim.

Donishmandlarimiz aytganidek: «O‘qitish – ikki barobar o‘qish demakdir». Demak, har bir o‘qituvchi-murabbiy bu o‘gitga amal qilar ekan, aslo kam bo‘lmaydi. Eng katta farq esa hozirgi kun o‘qituvchisining ish faoliyati innovatsion axborot texnologiya dunyosi, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, jahon hamjamiyatida o‘z o‘rni borligida. O‘qituvchilik kasbining qator mas’uliyatlarini sanab o‘tish mumkin.

Bular qatoriga bola ruhiyatini o‘rganish, undagi salbiy jihatlarga qarshi kurasha olish, o‘quvchilari qalbida o‘z faniga qiziqish uyg‘otish barobarida Vatanga, oilaga, ota-onaga,

do'stlariga nisbatan mehr-muhabbatli qila olish, har bir o'quvchining oilaviy sharoitini o'rganib, otaonasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish kabilarni kiritish mumkin. Biz o'qituvchilar yosh avlod ongiga shakl beruvchi, ularni yuksak pog'onalarga olib chiquvchi sharafli kasb egalari ekanligimizni ham unutmasligimiz kerak.

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi har bir inson uchun hayotda bilishi shart hisoblangan to'g'ri so'zlash, ifodali o'qish, o'z fi krini mustaqil bildira olish, og'zaki va yozma nutq hamda savodxonlikning imkon qadar yuqori darajasini egallashlarida ko'prik vazifasini bajaradi.

Bu ham uning zimmasidagi mas'uliyatning bir ko'rinishidir. O'qituvchi xalqi shunday xalqli, u har bir o'quvchisini o'z farzandidek qabul qiladi, uning yutug'idan to'libtoshib faxrlanadi, iztirobiga bab-baravar sherik bo'ladi. Ba'zi hollarda ayrim o'quvchilarining og'ir oilaviy sharoiti, ota-onasi qaramog'ida emasligi va bu uning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi, ba'zan bolalar tarbiyasi faqat maktabdagina nazorat ostida bo'lishi, bunday o'quvchilarining muntazam darslarda qatnashmasligi kabilalar o'qituvchilarimiz dilini xiralashtiradigan jihatlar hisoblanadi, chunki o'qituvchi uchun bolaning begonasi bo'lmaydi, u barchasini o'z farzandidek ko'rib yashaydi...

Xulosa o'mida shuni ta'kidlash mumkinki, ta'llim mazmunini boyitishga oid ishlarni muntazam ravishda olib borish lozim.

O'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda pedagogik omillarni ham ko'plab topsa bo'ladi. Ular ta'llim mazmunini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga mustahkam didaktik asos bo'la oladi va ularni ta'llim mazmuniga ustalik bilan kiritish esa, o'ziga xos innovatsion jarayon bo'lib, bunda o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etiladi.

Adabiyotlar:

Saydaxmedov N. Pedagogik amaliyatda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari.

— T.: RTM, 2000. — 46 b. G'ulomova M. X., Sobirova N. K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta'llim samaradorligini oshirish usullari // Innovatsiya o'quv jarayonida (tezislar to'plami).

— Baydjanov, B. K. (2021). Pedagogical and psychological features of the development of information competence in future teachers. Theoretical & Applied Science, (7), 171-178.

Jamoasining ota-onalar va ishlab chiqarishga dahldor bo'lgan mutasaddilarning , keng jamoatchilikning ko'p yillik ta'llim-tarbiya ishidir. Yoshlarni ma'naviy va psixologik jihatdan mehnat faoliyatiga yo'naltirish ishiga har tomonlama kamol toptirishning o'zaro bog'liq jarayoni deb qaraladi, bu borada e'tiqod va qobiliyat bilan birga yoshlarning shaxsi harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Kuzatishlarga qaraganda, har bir oilada har bir farzand turli kasb -hunarlargaga bo'lgan qiziqishi, e'tibori, imkoniyatlari, layoqatini namoyon qiladi. Yoshlarning o'z qiziqishlarini namoyon qilish jarayonida kattalar ongida ba'zan e'tirozlarni , ma'lum anglashilmovchiliklarni ham keltirib chiqaradi.

Mazkur e'tiroz farzandga nisbatan agressiya sifatida kattalar xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Demak , oilada farzandning o'z kasbiy qiziqishlari va imkoniyatlari, layoqatini namoyon qilishi orqali ota-onalar farzandni kasbga to'g'ri yo'naltira olishi dolzarb masala hisoblanadi.

Agar oilada farzandning kasbiy qobiliyatlarini inobatga olimmay , kasbga yo'naltirilsa , ota-onalar o'z xatti-harakatlari bilan farzandning kasbiy xohish -istagi , uning ishtiyoyqini to'g'ri , ya'ni

mutanosib anglamaganliklari sababli farzandning primitiv, ya'ni dastlabki tarzda namoyon bo'layotgan kasbiy irodasini so'ndirib , qiziqishlarini yo'qqa chiqarib qo'yishi mimkin.

Natijada , farzand kasbiy ijtimoiylashuv jarayonida qarorda adashib qolishi mumkin. Bu esa farzandning kasbiy qobiliyatlarini , uning layoqatlarini so'nishiga sabab bo'ladi. Inson faqat o'z qiziqishlari va layoqati orqali tanlagan kasbi bilangina o'zini ijtimoiy faol hayotga tayyorlaydi. Oiladanoq farzandlarning kasbiy qibiliyatları orqali innovatsion zamonaviy kasblarga yo'naltirilmasa , postmedrn , ya'ni texnologik jihatdan o'ta ilg'or jamiyatda yashash sharoitlariga farzandlarni hozirlash imkonini bo'lmaydi.

Yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvi muammosi barcha o'tish davrlarida ham alohida davlat va xalqlar uchun muhim ahamiyat kasb etib kelgan. O'tgan yuz yillikning boshlari mobaynida mazkur muammo global xarakter kasb etib kelmoqda, negaki butun koinotning sivilisatsiyasi dunyo yoshlarining kasbiy ijtimoiylashuviga yo'naltirilganligiga bog'liq .

Yuqoridagi fikrlar Najmuddin Kubro tomonidan yartilgan ("Fi-al adab ") , ("Odob qoidalari") risolasida bayon etilgan quyidagi fikrlar bilan go'yo bir nuqatada mujassam etganek bo'ladi: Muvaffaqqiyatni sa'yi- harakatda , muvaffaqqiyatsizlikni esa loqaydlik va dangasalikda, baloni tilda, halovatni esa sukutda ko'rdim." Bu borada hazrati Bahoviddin Naqshband "Chaqmoqtosh qo'limizga berilgan , faqat harakat qilish kerak, toki natija hosil bo'lsin" deb ta'kidlaganlar.

O'tmish mutafakkirlarining fikrlarini qo'llab - quvvatlagan Jaloliddin Davoniy o'z asarlarida insonni ijtimoiy mavjudot sifatida talqin etadi. Inson faqat jamiyatda , insonlar orasida va ular bilan birgalikda tashkil etilgan munosabatlar jarayonidagina shakllanadi, degan fikrni ilgari suradi. Tatqiqotlarning ko'rsatishicha yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllanishi uni bo'lajak kasbini tanlagan davriga to'g'ri kelar ekan. Yoshlar yoki bo'lajak mutaxassislar bolaligidan yoki ma'lum bir kasb egallaguniga qadar ushbu kasbning mas'uliyati, sharafli va uning qiyin tomonlarini , ayniqla uning Vatan ravnaqi yo'lidagi o'rnini qanchalik anglab yetsa, unda kasbiy ijtimoiylik shuncha tez ayon bo'ladi. Pedagogika fanida shaxsni ijtimoiylashuvida taqlid tarbiyasining o'rni alohida ekanligi aniqlangan. Bu muammo J.G. Mid va Freyd nazariyalarida ham alohida o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotlarda J.G.Mid bolalar, birinchi navbatda, atrofdagilarning harakatiga taqlid qilib ijtimoiy mavjudot sifatida rivojlanadilar.

Taqlid shakllaridan biri o'zin hisoblanadi. O'yinlarda bolalar ko'pincha kattalarga taqlid qilishini, bola oilaning bevosita oilaning kontekstidan chetda mustaqil harakat qila oladigan mavjudotga taxminan besh yoshlarda aylana boshlaydi deyishadi. Freyd nazarida bu- "Edip kompleksi" ning debochasi Mid nazarida esa rivojlangan o'zini anglash qobiliyatining bo'lishidir.²

Yoshlardan ijtimoiy burchni his etish ko'nikmasining shakllanishi kelgusida ijtimoiy burchni astoydil ado etishga undaydi.

Demak, ijtimoiy burchni his etish va uni ijro etish , amalda ko'rsatish o'rtasida farqli jihatlarning mavjudligi izlanishlar jarayonida ma'lum bo'ldi.

Shundan kelib chiqib, ijtimoiy burch va ijtimoiy mas'uliyat masalasi shaxsning ijtimoiy xulq-atvor motivlari tarbiyasi ko'rinishida qaraladi.

ADABIYOTLAR:

1. Baydjanov, B. K. (2021). Pedagogical and psychological features of the development of information competence in future teachers. *Theoretical & Applied Science*, (7), 171-178.
2. Dilshodovich, I. S. (2021). Ways To Increase the Effectiveness of Physical Education Classes in Secondary Schools. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 2, 142-143.
3. Ismoilov, S. (2021). Developing A Valued Attitude Towards the Family in Students as A Topical Pedagogical Problem. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 91-93.
4. Klochko V.E. Qadriyatlarni axloqiy tarbiya mexanizmi sifatida shaxslashtirish // Talaba shaxsining axloqiy asoslarini shakllantirish yo'llari. Muammolar. Metodologiya Tajriba: konferentsiya tezislari. Barnaul, 2007.
5. Lapin N.I. Qadriyatlar zamonaviy Rossiyaning ijtimoiy-madaniy evolyutsiyasining tarkibiy qismi sifatida // *Socis*. 1994. № 5
6. Maksudov, U. K. (2020). Issues of national values and social activity of students in the development of positive psychology. Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 394-396).